



XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 30 - aprel

VI-57-64-11-160-K/22

Toshloq tumani hokimligi

Fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining Toshloq tumanida 2022- yil I-choragi davomida odil sudlovni amalga oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Davlatimizda sud-huquq sohasini isloh etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eng e'tiborlisi, bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sud sohani yanada rivojlantirish, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, yuksak ma'naviyatli, chuqur bilim va hayotiy tajribaga ega sudyalar korpusini shakllantirish, sudya va sud xodimlarining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish hamda sud muhokamalarining shaffof va oshkora bo'lishiga erishishdir. Bu esa o'z navbatida soha hodimlari zimmasiga katta mas'uliyat, ulkan javobgarlikni ham yuklaydi.

2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, shuningdek fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining joriy yildagi faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi bo'ldi. Jumladan, fuqarolik ishlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal etish,

qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash borasida fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudi tomonidan 2022 yilning o'tgan davrida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudi tomonidan 2022 yilning 1-choragida 2087 ta fuqarolik ishi ko'rib chiqilib, ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha **1614** ta da'vo talabi qanoatlantirildi, **108** ta da'vo talabi qanoatlantirishdan rad qilindi, **12** ta ish bo'yicha ish yuritish tugatildi hamda **353** ta da'vo ariza ko'rmasdan qoldirildi. Joriy yil 1-choragida sud tomonidan ko'rilgan ishlarning **1308** tasi sayyor sud majlislarida ko'rilgan bo'lib, sayyor sud majlislarida ko'rilgan ishlar jami ko'rib hal qilingan ishlarga nisbatan **62,7** foizni tashkil qildi. Ayrim toifadagi ishlar o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paydi. Xususan, nikohdan ajratish, uydan ko'chirish, otalikni belgilash va aliment undirish, uyga kiritish bilan bog'liq fuqarolik ishlari o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paydi. Toshloq tumani bo'yicha nikohdan ajratish bilan bog'liq ishlar yuzasidan sud tomonidan qanoatlantirilgan da'vo arizalar o'tgan yilning shu davrida 24 tani tashkil qilgan bo'lib, joriy yilning 1-choragida 31 tani tashkil qilgan holda 7 taga oshgan. Nikohdan ajratish bilan bog'liq ishlar yuzasidan sud tomonidan qanoatlantirish rad qilingan da'vo arizalar o'tgan yilning shu davrida 9 tani tashkil qilgan bo'lib, joriy yilning 1-choragida 26 tani tashkil qildi. Nikoxdan ajralishni oldini olish, oilani saqlab qolish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi, birgina nikohdan ajratish xaqidagi masalani ijobiy hal qilinishi natijasida - nikohdan ajratish, aliment undirish, moddiy ta'minot undirish, uyga kiritish, uydan foydalanish tartibini belgilash, uydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish, umumiy mulk deb topish va bo'lish, ota-onalik xuquqidan mahrum qilish, bolani olish, bola bilan ko'rinish tartibini belgilash, otalikni belgilash kabi o'n besh turga yaqin nizolarni oldi olinishiga erishilishini nazarda tutib, kelgusida fuqarolar o'rtasida nikohga oid keng kamrovli tushuntirishlar berish, nikoh shartnomasi tuzishning afzalliklari yuzasidan olib borilayotgan targ'ibot ishlari samaradorligini yanada oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sud tomonidan fuqarolik nizolarini sudgacha bo'lgan jarayonda hal qilish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, muntazam ravishda hamkor tashkilotlari bilan birgalikda joylarda aholi o'rtasida targ'ibot tadbirlari amalga oshirib kelindi.

Bu maqsadda fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining sudyalari tomonidan "Mening mahallam-mening sudyam" g'oyasi ostida o'zlariga

biriktirilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida muntazam ravishda aholi bilan ochiq muloqotlar o‘tkazildi, odil sudlovni amalga oshirish jarayonlari, xalq bilan muloqot natijalari va sud faoliyatiga doir boshqa masalalar to‘g‘risida sudyalardan ommaviy axborot vositalarida **8** marotaba chiqishlar qilindi, **13** marotaba ochiq muloqotlar hamda **6** marotaba sayyor qabullar o‘tkazildi. Sudyalardan tomonidan o‘tkazilgan joriy yilning 1-choragida shaxsiy va sayyor qabullarda 161 nafar fuqarolar qabul qilinib, ularning sud-huquq sohasidagi muammolarini hal qilish bo‘yicha huquqiy tushuntirishlar berildi. Fuqarolar o‘rtasida nizolarni kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan shart-sharoitlarni bartaraf qilish maqsadida fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudi sudyalari tomonidan joriy yilda davlat idoralari va mahalla fuqarolar yig‘inlariga **68 ta** xususiy ajrim yuborildi. Fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etish, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, qonunga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, ularning odil sudlovga to‘sqinliksiz erishishini ta‘minlash borasida fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudi tomonidan 2022 yilda zarur chora-tadbirlar ko‘rib boriladi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudining Toshloq tumanida “2022- yil I-choragi davomida odil sudlovni amalga oshirish borasida Fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudining raisi S.Akbarovning axboroti tinglanib atroflicha muhokama qilib, Xalq deputatlari Toshloq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudining Toshloq tumanida “2022- yil I-choragi davomida odil sudlovni amalga oshirish borasida Fuqarolik ishlari bo‘yicha Marg‘ilon tumanlararo sudining raisi S.Akbarovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga:

- o‘z hududlarida tegishli idoralar bilan birgalikda huquqbuzarlik va jinoyatchiliklar, oilaviy ajrimlar, fuqarolik holatlari bilan bog‘liq nizolarni oldini olish, bunda mahalla oqsoqollari, imomlar, otinoyilar, ko‘chaboshilar - barcha jamoatchilik vakillari jalb qilish;

- notinch-nosog‘lom oilalar, tuman IIB.ning profilaktik hisobida hamda tibbiyot birlashmasining “D” nazoratida turgan fuqarolar bilan alohida reja asosida

ish olib borish, sayyor sud majlislariga bu toifadagi oilalar vakillarini, uy bekalari va ishchiz fuqarolarni ko‘proq jalb qilish choralarini ko‘rish;

- sayyor sud majlislariga keng jamoatchilikni jalb qilish, ishlarni mahallalar, tashkilot va idoralarda sayyor sud tartibida ko‘rib, nizolarni joyida bartaraf etishda kerakli shart-sharoitlarni yaratish;

- qonuniylikni va fuqarolarning huquq hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta‘minlash choralarini ko‘rib borsinlar.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- saylangan okruglarida mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda tumanda qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish masalalarida olib borayotgan ishlarini kuchaytirish, ajrimlarin oldini olish, sayyor sud majlislarida faol ishtrok etish, adashib, ehtiyotsizlik oqibatida yoki birinchi marta huquqbuzarlik sodir etib, o‘z aybiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan fuqarolarga kafillik imkoniyatlaridan foydalanish orqali ularni sog‘lom hayotga qaytirish choralarini ko‘rish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman Kengashining Qonuniylikni ta‘minlash va koruppsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Djurabayev